

## ЕY! QIZIL, SORIG‘, YASHIL BAHSIN GULISTONIMG‘А АYT

**Bazarova Xolida Ergashevna,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti  
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

e-mail: [holidabozorova@gmail.com](mailto:holidabozorova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada iste ‘dodli shoira Nodira Afoqovaning hazrat Navoiyning “Ey sabo, holim borib sarvi xiromonmg‘a ayt” g‘azaliga “Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi tahlil qilingan. Tahlilga mumtoz adabiyotga xos sifatlarning zamonaviy adabiyotda ifodalanishi nuqtayi nazaridan yondashilgan. Muxammasda qo‘llangan badiiy tasvir vosita, tushuncha, obrazlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Ey sabo, holim borib sarvi xiromonmg‘a ayt” g‘azali, “Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi; muxammasning g‘oyaviy tahlili, mohiyati; oshiq, ma’shuqa, Qaqnus, qaqnusbacha obrazlari.

**Аннотация:** В статье анализируется назира - стихотворение талантливого поэтессы Надиры Афоковой «О ветерок, иди и расскажи...» написанное газели великого поэта Алишера Навои. К анализу подходили с точки зрения выражения качеств, характерных для классической литературы, в современной литературе. Были высказаны мысли о художественных образных средствах, понятиях и образах, используемых в муhammasе.

**Ключевые слова:** Газели «О сабо, иди и расскажи моему кипарису о моем состоянии», «Эй! «Расскажи моему цветку о красном, желтом и зеленом споре» — загадка, начинающаяся со стиха; идеологический анализ, сущность муhammasa; изображения любовника, любовницы, (цепленочек Какнуса)

**Abstract:** In the article, the two ghazals of the talented poetess Nadira Afokova “O, zephyr, go and tell my cypress about my condition”, and “Hey! “Tell my flower of the red, yellow, and green debate to my garden” are analyzed. The analyses were approached from the point of view of the expression of qualities typical of classical literature in modern literature. Thoughts were made about the artistic image tools, concepts, and images used in muhammas.

**Keywords:** The ghazal “O zephyr, go and tell my cypress about my condition”, “Hey! “Tell my flower of the red, yellow, and green debate to my garden” is a puzzle that begins with the verse; ideological analysis of muhammas, essence; images of lover, mistress, Phoenix, Little phoenix

Navoiy g‘azallariga o‘xshatma yozish o‘zbek she’riyatida eng go‘zal an’analardan sanaladi. Agar ushbu naziralarning alohida hisob-kitobi qilinsa, tazmin she’rlarning miqdori, saviyasi, badiiyatini o‘rganishga qaratilgan “Navoiyga o‘xshatmalar” nomi ostida ulkan lirik kulliyot hosil bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida qalam tebratganki bor, Navoiy she’rlariga javob she’rlar yozadi, buyuk mutafakkirdan zavq oladi, unga ergashadi, uning “panjasiga panja uradi”. Ammo bu o‘ziga xos murakkab hamda mas’uliyatli vazifadir. Navoiy izidan borar ekan, ijodkor buyuk dahoning fikriga monand bo‘lmog‘i, uni g‘oyaviy davom ettirmog‘i, she’rdagi nozik did va an’ani saqlamog‘i, balki she’rga ikkinchi hayot baxsh etmog‘i, uni yanada rivojlantirib, sayqal bermog‘i shart bo‘ladi.

Iste’dodli shoira Nodira Afoqova hazrat Navoiyning “Ey sabo, holim borib sarvi xiromonmg‘a ayt”<sup>1</sup> g‘azaliga “Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt”<sup>2</sup> misrasi bilan boshlanuvchi javob muxammasini yozadi. Muxammas an’anaviy a-a-a-a-a, b-b-b-b-a tarzida qofiyalanib, band so‘nggida Navoiy g‘azalining juft satri aynan keltiriladi. Shoira Afoqova o‘ziga xos tajribaga ega, mumtoz adabiyot an’ana va usullarini ustalik bilan qo‘llashda mahoratlari ijodkorlardan. Navoiy she’riyati haqida gap ketar ekan, bu chuqur ummon qarshisida uning tubidan gavhar terishni maqsad qilgan g‘avvos holida bo‘lmoqni talab etadi. Ulug‘ mutafakkir falsafasi tasavvuf ta’limotining eng injam tamoyillariga boy. Bu durdonalarda shoirning siyrat ham suvrati bilan birga, olam va odam yaralishi, ular o‘rtasidagi so‘ngsiz bahs-u munozarani ko‘rish mumkin. Navoiyning “Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil”<sup>3</sup> misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga Jamol Kamolning ham juda go‘zal muxammasi mavjud. Mazkur g‘azal sharhida shoirning o‘zi uni Navoiyga xos olam va odam mujassami sifatida baho beradi. To‘g‘ri , she’rga o‘xshatma yozishning o‘z qonun talabi bor. Eng asosiysi esa izdoshning she’r g‘oyasi, uslubi, ohangi, jozibasini saqlab qolishi va unda albatta yangi ohang yaratib, ikkinchi hayot baxsh etishidir. Tahlilini qilayotgan shoira Afoqova qalamiga mansub muxammas esa boshqa tazmin muxammaslardan farqli o‘laroq Navoiyning “Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil”<sup>4</sup> misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida qo‘llangan “qizil, sorig‘, yashil” ma’nolari zaminida boshqa bir durdona “Ey sabo, holim borib ...” g‘azali g‘oyasini uyg‘unlashtiradi. Buni birgina misra orqali shoira Afoqova oshiqning ahvoli tasvirini berishda ustalik bilan yondashganida ko‘rish mumkin: “Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt”.

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Topmadim. G‘azallar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988, 85-bet

<sup>2</sup> Nodira Afoqova . Nodira Afoqova she’rlari akkaunti telegram kanali. t.me/Nodirashe’riyati. ”Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt” muxammasi

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Topmadim. G‘azallar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988, 424-bet

<sup>4</sup> Alisher Navoiy. Topmadim. G‘azallar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988, 424-bet

Shu birgina misraning o‘zi ikki mashhur she’r g‘oyasini o‘zida mujassamlashtira olgani ijodkor falsafiy olamining naqadar chuqur ekanidan dalolat beradi. Zero, manbalarda ijodkordan adabiy bilimlarda mukammal bo‘lishlik, jumladan, taxayyul, zakovat, hofiza, tuyg‘u va hayotdan falsafiy xulosalar olish, undan zavqlanish xislatlariga egalik talab etiladi. Buyuk mutafakkir ana shu sifatlarda benazir edi. Shoira Afoqova mutafakkir she’rini g‘oyaviy davom ettirar ekan, ustoz izidan boradi. U mahoratli nuktadon sohibi sifatida Navoiy qarashlarining eng nozik qirralarini his etadi va unga munosib javob ayta oladi. Afoqova o‘z ijodida badiiy adabiyot talablaridan bo‘lgan shakl va mazmun mutanosibligi tamoyiliga qat’iy amal qildi. Darhaqiqat, Navoiy ham o‘z davrida “ o‘zigacha salaflari tomonidan qonuniyat darajasiga yetkazilgan - shakl va mazmun mutanosibligi masalasini ijodining bosh tamoyili qilib ol”gandi<sup>5</sup>. Aynan shakl va mazmun mutanosibligi, poetik mahorat bu ikki ijodkor fikriy qarashlarida jamlanadi. O‘quvchi ixtiyoriga yana bir durdona taqdim etadi.

Iste’dodli shoira Nodira Afoqova hazrat Navoiyning “Ey sabo, holim borib sarvi xiromonmg‘a ayt”<sup>6</sup> g‘azaliga “Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt”<sup>7</sup> misrasi bilan boshlanuvchi javob muxammasida mumtoz adabiyotga xos sifatlar bilan birga juda ko‘plab yangicha topilmalar, quyma ifoda va tasvirning betakror vositalari o‘ta mahorat bilan qo‘llangan.

Navoiyning “Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil”<sup>8</sup> misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida uch rang: qizil, sorig‘, yashil ranglarda ma’shuqaning kiyinishi, ko‘rinishi, chiroyi, oshiqning ahvoli, zamona zayli kabi ma’nolar hamda olam va odam yaralishi bilan bog‘liq falsafiy mushohadalar mujassamlangani ma’lum. Afoqova mazkur misrada ana shu voqeaga asoslanib, “qizil, sorig‘, yashil” bahsidan so‘z ochadi:

*Ey ! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt,  
Men xazonlig‘ tortamen, ul sabz bo‘stonimg‘a ayt ,  
Evrilur rangim necha-boisi bo‘lg‘onimg‘a ayt,  
Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,  
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.*

<sup>5</sup> Sh. Sirojiddinov, D.Yusupova, O. Davlatov. Navoiyshunoslik. 1-kitob. Darslik. “Tamaddun” nashriyoti. 2018-yil. 208-bet

<sup>6</sup> Alisher Navoiy. Topmadim. G‘azallar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988, 85-bet

<sup>7</sup> Nodira Afoqova . Nodira Afoqova she’rlari akkaunti telegram kanali. t.me/Nodirashe’riyati. ”Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt” muxammasi

<sup>8</sup> Alisher Navoiy. Topmadim. G‘azallar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988, 424-bet

Oshiqning ma'shuqasini "gulistonim-bo'stonim- gulbargi xandonim" kabi ko'ngliga yaqin olib tasvirlashida ham jon bor . Negaki, ma'shuqa bilan o'rtada "ahd-u paymon" bor. Shuning uchun ham o'rtadagi shartnomaning bu tarzda inqirozga yuz tutishi oshiq ahvolini tang qilib qo'yemoqda: "Men xazonlig‘ tortaman, ul sabz bo'stonimg‘a ayt". Keyingi bandda munosabat ahd-u paymonning oshiq qalbidagi mohiyatini ochishga qaratiladi:

*Bir balo ermishdi boshtin ahd-u paymon etmagi,  
Yuz balo ahd-u vafodin va'da doston etmagi,  
Ming balo ming bir kecha ertak bila tong etmagi,  
Buki, oning ahd-u paymonida men o'lsam dag'i,  
Yashi fursat topsang, ul bad'ahd-u paymonimg‘a ayt.*

Ko'rinaridiki, oshiq va ma'shuqa ahd-u paymoni bir yoqlama, bu esa endi boshga balo bo'lib qolgan. Ahd-u paymon ham vaqtida va'dalar dostoni bo'lgani yuz balo bo'lsa, ming bir kechalarni tonggacha ulab aytgulik vafo haqidagi ertaklar ekan. Endi bu va'dalar quruq bo'lib chiqmoqda , oshiq ko'nglidagi vafoli yor "bad'ahd-u paymon" deya atalmoqda. Shunday bo'lganda ham, oshiq o'z hol tasviri haqida o'sha "bad'ahd-u paymon"ga yetkazishni zorlanmoqda. Oshiq endi o'zini olovga topinuvchi bir zardusht yoinki yor ko'yida qilgan savob ishlari kufrga aylanib, yorning zulfi-sochlarini beliga zunnor-belbog‘ qilib, musulmonga xos bo'lmanan ishlarni qildi. Barcha harakatlar kufr tus olib, nomusulmonlig‘ bo'ldi. Tabiiyki, bu holat ma'shuqaning g'azabini qo'zg'ab, qoshlarini chimirishiga sabab bo'ladi. Oshiq shu chimirilgan qoshlarning qilichga aylanib, oshiq boshini uzishiga-da rozi. Endi bu ahvolni o'sha "nomusulmong‘a" yetkazish kerak. Shuni ham qayd etish lozimki, Navoiy g'azalni saboga murojaatdan boshlagandi, shoira muxammasida sabo shunchaki "ey" undalmasiga yuklanadi. Ilk satrda undalmaning "Ey" tarzida qo'llanishi hamda uning bandning oxirgi satriga boribgina "sabo" murojaatiga aylantirilishida ham va'dada sobitsizlik, ahdda bad'ahd-u paymonlikdan ozoranish hissi jamlangan:

*Toki zardushtdek o'libmen oftobin moyili ,  
Jon olib-jon baxsh etar jonsuhbatining noili,  
Sajdada qoshi qilichi o'lsa boshim qotili,  
Buki, oning zulfi zunnorida dinim hosili  
Kufr ila bo'lmish mubaddal, nomusulmonimg‘a ayt.*

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra "ma'shuqa" timsolida ollohga, "zulf" istilohida olloh sir-u asrorilariga ishora qilinadi. Bandda qo'llangan "zardusht-of tob-sajda-zulf-zunnor-din-kufr-nomusulmon" so'zлari tanosub badiiy tasvir vosita sifatida ta'limotning asl mohiyatini ochishga xizmat qilgan. "Jon-jon baxsh etar-jonsuhbat" singari o'zakdosh so'zlarning qo'llanishi ham oshiqning ishq yo'lida chekkan uqubatlarini ko'rsatish bilan birga ishtiqoqdek (ishtiqoq - o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'ati. Bunda jon-jon baxsh etmoq- jonsuhbat) badiiy tasvir vositaning go'zal namunasi bo'lgan. Negaki, ma'shuqa husnda tengsiz, uning suhbat - huzur, visoli-maqсад, ya'ni oliy martaba ekan, u - jon fido qilishga, uning uchun jon olib jon berishga, unga go'zal yaratiqlardan sadqa qilishga munosib zot:

*Buki, qildim fasli gul bo'stonni oning sadqasi,  
 Buki, yozimda samarlik onni oning sadqasi,  
 Buki, umrim hosili xirmonni oning sadqasi,  
 Buki qilmishmen jahon-u jonni oning sadqasi,  
 Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg'a ayt.*

Ko'rinaradiki, oshiq ham ishqda benazir. U ayni bahor chog'ida yashnagan bo'ston, umri davomida yig'gan savoblariga qo'shib, jismi jonini sadqa qilib yubormoqda. Mazkur satrlar ma'shuqaning birgina xoli uchun ikki go'zal shahar- Samarqand va Buxoroni sadqa qilgan hofizning betakror satrlarini yodga soladi, shuningdek, o'z jozibasini ham ko'z-ko'z qiladi:

Ba xoli hinduyash baxsham Samarqand-u Buxororo...<sup>9</sup>

Oshiq harna qilsa-da, ma'shuqa e'tiborini o'ziga qaratmoqchi. Har qanday evaz to'lashga-da, pushaymon bo'lmaslikka-da rozi. Ma'shuqasiga yetisha olsa bas:

*Ayt, iymon sadqasi qilsam pushaymon bo'lmag'um,  
 Oni har on sadqasi qilsam pushaymon bo'lmag'um,  
 Har ne berg'an-sadqasi qilsam pushaymon bo'lmag'um,  
 Buki, yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo'lmag'um,  
 Vaslig'a bir va'da qilg'andin pushaymonimg'a ayt.*

Bandda sadqa qilish, ya'ni ehsoning qiymati bir qadar ko'tariladi. Imon sadqasi-bu oshiqning eng beba ho durri-gavhari, butun hayoti, umri, suvrati va siyrati, hayot maslagi jamlanmasidir. Oshiq imonni har on, har lahza sadqa qilishdan charchamas ham, bu ishdan pushaymon ham bo'lmas. Keyingi satrda yanada o'tkirroq fikr

<sup>9</sup> <https://kh-davron.uz>> jahon. Xo`ja Hofiz Sherzoziy. Gazallar. Jamol Kamol tarjimalari.

keltiriladi. Ollohdan oshiqqa neki berilgan bo‘lsa, borini sadqa qilmoqda, bori nima bo‘libdi- yuz joni bo‘lsa ham, xayr qilib, bu ishdan pushaymon bo‘lmasligini ta’kidlab, o‘z saxovatini namoyish etmoqda. Garchi bu ehsonlar ma’shuqa visoli uchun munosib ehsondir.

Oshiq keyingi bandlarda ham o‘z hol tasviri xabarini ma’shuqaga yetkazishni so‘rashda davom etadi. Ahvoli haqidagi xabarlargacha o‘z ma’shuqasining e’tiboridan umidlanadi:

*Buki, ayt, dunyo emastur menga dunyo onsizin,  
Buki, dil jannatda ham solgusi g‘avg‘o onsizin ,  
Buki, yo ‘q ikki jahonga asti parvo onsizin,  
Buki, yuz ming fitnako ‘zlug bo ‘lsa paydo onsizin,  
Qilmag ‘um nazzora hargiz fattonimg ‘a ayt.*

Oshiq uchun ma’shuqasiz dunyo dunyo emas, jannah ham tatimaydi, hatto ikki jahon ma’nosini yo‘qotadi. Shu o‘rinda oshiq o‘z sadoqatini ham bayon etadi: agar yuz ming go‘zal unga mahliyo bo‘lib boqqanida ham, oshiq unga bir nazar solmaydi.

Mumtoz she’riyat jozibasi-g‘azallarning tuzilishida begona bayt tushunchasi bor. Shoир begona baytda asl muddao, tuyg‘ulari, she’r g‘oyasi mohiyatini bayon etadi. Betakror shoир Abdulla Oripov bu haqda shunday degan: ” Bu baytda shoир kimni maqtagini kelsa, maqtaydi, kimni yomon ko‘rsa, undan alamini oladi, g‘azal umumyo‘nalishiga u qadar bog‘lanmaydiganroq gapi bo‘lsa ham, shu yerda aytib qoladi”. Mazkur o‘xshatmada ham lirik chekinish ijodkorning asl maslagi-tasavvuf tamoyillarining ifodasiga qaratiladi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra ”may”-ishq timsoli, kosa-qalb timsolini ifodalaydi:

*Oftobdan kosai may tutsa ofoq dastiga,  
Son ‘g tamoshо etgali Oy chiqsa Mino ustig ‘a,  
O‘xshasa yulduz may uzra sho ‘x huboblar aksig ‘a,  
Buki, chok aylab yaqo, usruk chiqar el qasdig ‘a,  
Men o‘lib el jon topar, bebok nodonimg ‘a ayt.*

Ofoq, ya’ni dunyo qo‘liga oftobdan yaralgan kosaga may to‘ldirib tutsang, bu holni tomosha qilishga Oy Mino tog‘iga chiqsa, Osmon to‘la yulduz kosa mayidagi mayda pufakchalarga o‘xshasa. Ma’shuqa mastona ko‘zlar bilan jon oladi, zero, unga bebok, ya’ni hech narsadan qo‘rqmaydigan, hayiqmaydigan sifatlashi berilgan. Oshiq bu sinovga chiday olarmidi?

Bandning mazmuni anglaganimiz singari oshiq qalbining oftob yanglig‘, uning ishq bilan limmo-lim ekani g‘oyatda ta’sirli ifodalanganiga ham guvoh bo‘lamiz. Bunday go‘zallikni ko‘rishga Oy misli Mino tepasida turibgina erishmoq mumkin. Oshiq qalbida bu qadar o‘tli muhabbat borki, ma’shuqasiz hayot yo‘q, damlar ham dunyo gullarining go‘zalligi ham g‘animat, shuningdek, ma’shuqaning ham hozirgi chiroy, husn-latofati vaqtincha ekani ta’kidlanadi. Yor yuzi gul, jismining suman, o‘zi bir guliston bo‘lib, bu esa o‘tkinchi ekanini aytib, ma’shuqani insofga chorlamoq lozim:

*Buki, ruhim qushlari onsiz havosiz erkanin,  
 Buki, darz top mish ko ‘ngil, naykim navosiz erkanin,  
 Buki, dam shu damligini ham bilsa joiz erkanin,  
 Dahr bog ‘i gullari husnin vafosiz erkanin  
 Yuzi gul, jismi suman, ko ‘yi gulistonimg ‘a ayt.*

Tasavvuf ta’limotida barcha oshiqlar yor vasliga intizor, qalb kosalari siniq, yig‘lagan holda:

“Xarobat aro kirdim oshuftahol,

May icharga ilgimda singan safol...”<sup>10</sup> tarzida tasvirlangani kabi tahlilini ko‘rayotganimiz she’rda ham oshiq jonsiz, ya’ni o‘zini o‘lgan his etadi (ruhim qushlari onsiz havosiz); darz topgan ko‘ngil musiqasiz, nolasiz nay kabidir. Ogahiy ana shunday nolavash holatni: “Buncha ofatmi bo‘lur bir odamizod ustina” <sup>11</sup> deya tasvirlagandi. Shoiraning ham oshiq sifatida nolalari ko‘klarni tutadi. Murojaatni to‘g‘ridan to‘g‘ri salafga-ustozga, yana ham ochiqrog‘i, ota-Qaqnusga qaratadi:

*Ey Navoiy, Siz kabi ishq ichra bormu mubtalo?!*  
*Ey Navoiy, bormu Sizdek hech qaqnus So ‘z aro?!*  
*Ey Navoiy, sel bo ‘lurbiz, tosh esak, bu ne balo!*  
*Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo*  
*Bulbuli yo ‘q erkanin shohi suxandonimg ‘a ayt.*

Muxammasing har to‘rt satrida “Ey Navoiy” undalmasining qo‘llanishi she’r ta’sirchanligini, ifoda kuchini oshirishga xizmat qilgan. Navoiy ulkan lirik merostuganmas xazina qoldirgan. Uning nolasida ham, xulqi, atvori mujassam she’riyatida ham ishqda barqarorlik, imonda sobitlik, so‘z qo‘llashda tengsizlik Navoiyga xos.

<sup>10</sup> Alisher Navoiy. Badoye’ ul-bidoya. T.: 427-bet.

<sup>11</sup> Ogahiy. Ta’viz ul-oshiqin. 1-jild. T.: 1965-yil. 233-bet

Shoira shundan bu buyuk dahoga qachonlardir o‘zini shunday atashni lozim ko‘rgan qaqnus atamasini maxsus ishlatadi:

Ey Navoiy, bormu Sizdek hech qaqnus So‘z aro?!

Qaqnus Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida shunday ta’riflanadi: “Bu kelishgan baquvvat qushdir. Hech bir qush unga teng kelolmaydi. Qaqnus o‘rmonda juda uzoq hayot kechirib, umr bo‘yi o‘tin yig‘adi. Umri poyoniga yetgach, umrbod jamlangan o‘tinlar xirmoni ustiga chiqib, nihoyatda hazing dilkash navo bilan sayraydi. Bu navodan o‘zi yig‘gan ulkan o‘tinlar xirmoniga o‘t tutashib, olov ichida qoladi. Nihoyat, o‘tinlar ham, o‘zi ham kulga aylanadi. Bu kollar bir tog‘ bo‘lib uyulgach, ichida bir qaqnusbachcha... asta-asta qimirlab, kul ichidan bosh ko‘taradi. U ham o‘rmonni ko‘radi va o‘tin yig‘a boshlaydi...”<sup>12</sup> Dostonda buyuk mutafakkir Qaqnus haqdagi ushbu hikoyani davom ettirib, ustoz Farididdin Attorni ana shu noyob qushga, o‘zini qaqnusbachchaga qiyoslaydi: ”Men uni ota, o‘zimni o‘g‘il deb atamay, u oliv martabali shoh, men uning bandasi, quliman. Chunki u avval u bu olovda kuyib, barcha olamga o‘t soldi. So‘ngra bu o‘tdan biron ta kimsa menchalik kuyib-yonmadi...”<sup>13</sup> Shoira Nodira Afoqovaning mazkur she‘r xotimasida ustozdan faxrlanib ” Ey Navoiy, bormu Sizdek hech qaqnus So‘z aro?! ” deganida naqadar haqli ekanini ko‘ramiz. Muxammas yuksak poetik mahorat bilan bitilgan. Navoiy lirik chamani shunchalik ham beqiyos, turfa rangki, bu gulshan o‘z chiroy, jozibasi bilan hali minglab, millionlab qaqnusbachchalarining nafasiga cho‘g‘ solajak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Topmadim. G‘azallar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988, 85-bet
2. Nodira Afoqova. Nodira Afoqova she‘rlari akkaunti telegram kanali. t.me/Nodirashe’riyati. ”Ey! Qizil, sorig‘, yashil bahsin gulistonimg‘a ayt” muxammasi
3. Alisher Navoiy. Topmadim. G‘azallar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1988, 424-bet
4. <https://kh-davron.uz> jahon. Xo‘ja Hofiz Sheroyi. Gazallar. Jamol Kamol tarjimalari.
5. Sh. Sirojiddinov, D.Yusupova, O. Davlatov. Navoiyshunoslik. 1-kitob. Darslik. “Tamaddun” nashriyoti. 2018-yil. 208-bet
6. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-bidoya. T.: 427-bet.
7. Ogahiy. Ta’viz ul-oshiqin. 1-jild. T.: 1965-yil. 233-bet
8. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent, 2019-yil, 210-bet.

<sup>12</sup> Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent, 2019-yil, 210-bet.

<sup>13</sup> Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent, 2019-yil, 211-bet.